

## BANDLIK TERAPIYASI YOHUD MEHNAT BILAN DAVOLASH

*Omonqulov Jahongir*

*SamDTU jizzax filliali Davolash ishi yo'nalishi*

*2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mehnat terapiya sohasi uning bemorlarning davolanish jarayonidagi ahamiyati va natijalari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, zamonaviy tibbiyotda unga bo'lgan talabalar to'g'risida.

**Kalit so'zlar:** Mehnat bilash davolash, ruhiyat, reabilitatsiya, tabiiy rag'batlantiruvchi

MEHNAT BILAN DAVOLASH - ayrim kasalliklari va shikastlanishlarni davolashda mehnatdan foydalanish. Mehnat bilan davolash odam psixofiziologiyasiga tonusini oshiruvchi va aktivlantiruvchi ta'sir etishiga asoslangan. Uzoq vaqtgacha bekor yurish odamni dangasa qilib qo'yadi, malakasini ham yo'qotadi. Ish tabiiy rag'batlantiruvchi bo'lganidan hayotiy tonusni oshiradi. Uzoq muddatga cho'zilgan kasallik natijasida kishida dard tufayligina emas, balki faoliyatsizlik oqibatida ham kuch quvvat pasayib kitadi. Doimo ish bilan band bo'lib kelgan odamning kasallik sababli uzoq muddat ishlay olmasligi, unga ruhiy jihatdan ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mehnatdan shifobaxsh omil sifatida foydalanish buning asosiy qismidir. Bemorning ruhiyatiga ta'sir etish usullaridan biri (ayniqsa, ruhiy kasalxonalarda). Organizm tonusini oshirish, moddalar almashinuvi jarayonini normallashtirish vositasi bo'lib tibbiyotning turli sohalarida shifobaxsh fizkultura va sport bilan bir qarotda tatbiq etiladi. Davolash muassasalarida bemor uzoq yotganda (suyak va o'pka sili, poliomyelit oqibatlari) tavsiya etiladi. Sh.A. Alimov O'zbekistonda Mehnat bilan davolashni ilgari surdi. Shu bois respublikamizda Mehnat bilan davolash sanatoriyasi va dispanserlari ochildi.

Davolash jarayonida mehnatdan foydalanish meditsina nuqtai nazaridan hal qilinadigan vazifadir, chunki kasal odamning qachondan va qancha ishlashi mumkinligini faqat vrach to'g'ri belgilay oladi. Har qaysi holda tavsiya etiladigan mehnatning turi ham bemorning ahvoriga qarab belgilanadi.

Mehnat bilan davolashdan reabilitatsiya markazlarida mehnat qobiliyatini tiklaydigan davo metodi sifatida keng foydalaniladi. Reabilitatsiya (lot. rehabilitatio - tiklash) - organizmning buzilgan funksiyasini va bemorlar hamda nogironlarning mehnat qobiliyatini tiklashga qaratilgan tibbiy, pedagogik va ijtimoiy chora tadbirlar yig'indisi. Og'ir kasalliklar (miokard infarkti, insult, orqa miya shikastlanishlari, umurtqa pog'onasi va bo'g'imlarning shakli o'zgarishi bilan kechadigan kasalliklar) markaziy nerv sistemasining jiddiy zararlanishlari, ruhiy kasalliklarga uchragan

bemorlar reabilitatsiyaga ko'proq muhtoj bo'ladi. Tibbiy reabilitatsiya kasallik tufayli funksiyasini yo'qotgan a'zo faoliyatini qisman yoki to'liq tiklash yoki kasallangan sohadagi avj olayotgan jarayonning iloji boricha oldini olishga qaratiladi. Reabilitatsiya bo'limi bor kasalxonalar, ilmiy tadqiqot institutlari, mahalliy kurort va sanatoriyalarda reabilitatsiyani amalga oshirish har bir bemorning umumiy ahvolidan kilib chiqqan holda kasallikning shakli va yechishiga qarab belgilanadi.

Ular shikastlangan, miyada qon aylanishi buzilganda bemorlar asta-sekin oddiy turmush retmiga qaytariladi. Mehnat bilan davolashda bosh miya tomirlari kasalliklari bilan og'rib o'tgan odamga umumiy aktivlikni tiklashga va falajlik ro'y bergan bo'lsa, uning oqibatini yengillashtirishga yordam beradi, infarkt bo'lib o'tgan odamni hayot tarziga qaytaradi. Mehnat bilan davolash suyak bo'g'in apparati kasalliklarida muhim o'rin egallab, turg'un ankilozlar (bo'g'imlarning harakatsiz bo'lib qolishi) paydo bo'lishidan saqlab qoladi. Ulug' Vatan urush yillarida mehnat bilan davolash frontdagi va mamlakat ichkarisidagi gospitallarda keng qo'llanilgan, u ko'plab yaradorlarni safga tez qaytarishga imkon bergan.

Mehnat bilan davolash ruhiy kasalliklarga duchor bo'lgan bemorlarni davolashda alohida ahamiyata ega. Kasallikning og'ir yengilligi, kechishiga qarab deyarli hamma ruhiy bemorlar mehnat bilan davolanadi. Ruhan buzilish simptomlari (emotsional buzilishlar, gallyutsinatsiya, alahlashning turli shakllari) insoniy munosabatlarni qiyinlashtirib qo'yadi. Bunday hollarda bemorlarning vrach ishtiroki va ko'magida birgalikdagi qilgan harakati ularning kishilar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatini yengillashtiradi, keskinlik holatini, bezovtalikni bartaraf etadi. Ish bilan mashg'ul bo'lish, diqqat etiborini bajarilayotgan mehnatga qaratish bemorning kasallik kechinmalarini unitishga yordam beradi. Ruhiy bemorlar uchun mehnat bilan davolash tibbiy yordam sifatida juda katta ahamiyatga ega bo'lgani sababli hammadan oldin undan psixiatrlar foydalanishgan. Abu Ali Ibn Sinoning "Vujud ruhning amriga moyildir", -degan so'zlari naqadar to'g'ri ekanligini tibbiyotdagi ming yillik tajriba va kuzatishlar tasdiqlab turubdi. Avvaliga ruhiy bemorlarga asosan qishloq xo'jaligi ishlari topshirilardi, chunki psixiatriya kasalxonalarida shahar chekkalarida, qishloqlarda joylashgan edi. Hozir ular uchun mehnat ustaxonalari mavjud. Travmatologiya, ortopediya va nevrologiyada harakat faoliyatini tiklash uchun shifobaxsh gimnastika bilan birga ham qo'llaniladi. Ularda radiotexnika aparaturasini yig'ish kabi murakkab ishlarni bajaradilar. Bemorlar mehnatiga haq to'lanadi, bu faqat moddiy jihatdan emas, balki psixoterapevtik jihatdan ham ahamiyatlidir.

Yirik amerikalik epileptolog V. Lennoks "faol hayot - xurujlar antagonistidir" degan edi. Mutaxassislar epilepsiya kaslligida xurujlarning passiv hayot kechiruvchi bemorlarda ko'p kuzatilishi, faol aqliy mehnat va jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchi bemorlarda esa xurujlar kam kuzatilishini aytib o'tishadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent 2000-yil .
2. Tibbiyot psixologiyasi . Toshkent "IQTISODIYOT -MOLIYA ". 2008-yil.
3. [uz.m.wikipedia.org](http://uz.m.wikipedia.org).
4. [www.wikiwand.com](http://www.wikiwand.com).
5. [uzsmart.uz/encyclopedia](http://uzsmart.uz/encyclopedia) .